


# Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 6-iyun, № 112 (8735) Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# JSTGA QO'SHILISH BORASIDA KO'RILAYOTGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR MUHOKAMA QILINDI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-iyun kuni Jahon savdo tashkiloti (JST) bosh direktori doktor Ngozi Okonjo-Ivealani qabul qildi.**



Uchrashuvda mamlakatimizning JSTga qo'shilishi borasida ko'rilayotgan amaliy chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Qisqa muddat ichida Ishchi guruhning ikkita yig'ilishi o'tkazilgani, a'zo mamlakatlar bilan faol muzokaralar olib borilayotgani, qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash shartlari muhokama qilina boshlangani va milliy qonunchilikni tashkilotning me'yor va qoidalariga muvofiqlashtirish ishlari davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Shuningdek, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, elektron savdo va raqamli xizmatlar eksportini oshirish sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yish muhimligi ta'kidlandi.

Xalqaro savdoni tartibga solish masalalari bo'yicha o'zbekistonlik ekspertlarning salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Shu ma'noda, JSTning ko'magi bilan O'zbekistonda Savdo siyosati bo'yicha kompetensiya markazini tashkil etish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari JST bosh direktoriga davra suhbatida ishtirok etgani va O'zbekistonning yetakchi universitetlari talabalari bilan uchrashgani uchun minnatdorlik bildirib, unga Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining faxriy doktori unvoni berilgani bilan tabrikladi.

Uchrashuv yakunida Ngozi Okonjo-Iveala O'zbekistonning tashkilotga a'zo bo'lish yo'lidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

**O'zA.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'zbekiston Respublikasining

QONUNI

## Sanoat namunalarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Gaaga bitimining Jeneva aktiga (Jeneva, 1999-yil 2-iyul) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 26-martda qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 18-mayda ma'qullangan

Sanoat namunalarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Gaaga bitimining Jeneva aktiga (Jeneva, 1999-yil 2-iyul) quyidagi bayonotlar bilan qo'shilinsin:

1) **Gaaga bitimi Jeneva aktining 7-moddasi 2-bandi** bo'yicha: "O'zbekiston Respublikasi bayon qiladiki, O'zbekiston Respublikasi ko'rsatilgan har qanday xalqaro talabnoma munosabati bilan va shunday xalqaro talabnomani topshirish natijasida amalga oshirilgan har qanday xalqaro ro'yxatdan o'tkazish uzaytirilishi munosabati bilan, ko'rsatilganlik uchun qayd etilgan boj O'zbekiston Respublikasi o'z hududida sanoat namunasining xalqaro ro'yxatdan o'tganligi amal qiladigan davlat sifatida ko'rsatilganligi uchun yakka tartibdagi bojga almashtiriladi";

2) **Gaaga bitimi Jeneva aktining 11-moddasi 1-bandi (b) kichik bandi** bo'yicha: "O'zbekiston Respublikasi bayon qiladiki, uning qonunchiligida sanoat namunasi to'g'risidagi ma'lumotlarning nashr etilishini kechiktirish nazarda tutilmagan";

3) **Gaaga bitimi Jeneva aktining 13-moddasi 1-bandi** bo'yicha: "O'zbekiston Respublikasi bayon qiladiki, ayni bir talabnoma obyekti bo'lgan sanoat namunalari ijodiy g'oya birligi talabiga javob berishi shart";

4) **Gaaga bitimi Jeneva aktining 16-moddasi 2-bandi** bo'yicha: "O'zbekiston Respublikasi bayon qiladiki, Xalqaro reestrdagi xalqaro ro'yxatga olingan alohida yoki barcha sanoat namunalarining egasi o'zgarganligi to'g'risidagi yozuv O'zbekiston Respublikasining Idorasi huquq boshqa shaxsga o'tkazganligi haqidagi tegishli hujjatlarni olmagunicha kuchga ega bo'lmaydi";

5) **Gaaga bitimi Jeneva aktining 17-moddasi 3-bandi (s) kichik bandi** bo'yicha: "O'zbekiston Respublikasi bayon qiladiki, sanoat namunasiga bo'lgan mutlaq huquqning amal qilish muddati besh yilni tashkil etadi va bu muddat huquq egasining arizasiga ko'ra bir necha marta besh yilga, biroq xalqaro ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran hisoblanganda jami ko'pi bilan o'n besh yilga uzaytirilishi mumkin";

6) **Gaaga bitimining 1999-yildagi aktiga va 1960-yildagi aktiga doir umumiy yo'riqnomaning 13-qoidasi 4-bandi** bo'yicha: "O'zbekiston Respublikasi bayon qiladiki, O'zbekiston Respublikasining Idorasi orqali berilgan xalqaro talabnoma materiallarini jo'natish uchun zarur bo'lgan bir oy muddat xavfsizlik talablariga rioya etilishi bo'yicha tekshiruv o'tkazish uchun zarur bo'lgan olti oy muddatga almashtiriladi";

7) **Gaaga bitimining 1999-yildagi aktiga va 1960-yildagi aktiga doir umumiy yo'riqnomaning 18-qoidasi 1-bandi (b) kichik bandi** bo'yicha: "O'zbekiston Respublikasi bayon qiladiki, O'zbekiston Respublikasi hududida muhofaza taqdim etishni rad etish to'g'risidagi bildirish xatini tayyorlash uchun eng ko'p muddat 12 oydan iboratdir";

8) **Gaaga bitimining 1999-yildagi aktiga va 1960-yildagi aktiga doir umumiy yo'riqnomaning 18-qoidasi 1-bandi (s) (i) kichik bandi** bo'yicha: "O'zbekiston Respublikasi bayon qiladiki, sanoat namunasining O'zbekiston Respublikasi hududida xalqaro ro'yxatdan o'tganligining amal qilishi uning Idorasi tomonidan Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Xalqaro byurosiga muhofaza taqdim etilganligi to'g'risidagi xabarnoma yuborilgan kundan e'tiboran boshlanadi".

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 5-iyun
№ O'RQ—929

O'zbekiston Respublikasining

QONUNI

## Ijrochilar, fonogramma tayyorlovchilar va eshittirish tashkilotlari huquqlarini muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga (Rim, 1961-yil 26-oktabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 26-martda qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 18-mayda ma'qullangan

Ijrochilar, fonogramma tayyorlovchilar va eshittirish tashkilotlari huquqlarini muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga (Rim, 1961-yil 26-oktabr) quyidagi qo'shimcha shartlar inobatga olingan holda qo'shilinsin:

1) **Xalqaro konvensiyaning 6-moddasi 2-bandi** bo'yicha: "O'zbekiston Respublikasi bayon qiladiki, u faqat eshittirish tashkilotining bosh qarorgohi boshqa Ahdlashuvchi davlatda joylashgan va uzatish ayni o'sha Ahdlashuvchi davlatdagi uzatgich yordamida amalga oshirilgan taqdirda, efirga uzatish muhofazasini ta'minlaydi";

2) **Xalqaro konvensiyaning 16-moddasi 1-bandi a) (iii) kichik bandi** bo'yicha: "O'zbekiston Respublikasi bayon qiladiki, u tayyorlovchisi boshqa Ahdlashuvchi davlatning fuqarosi yoki yuridik shaxsi bo'lmagan fonogrammalarga nisbatan 12-moddani qo'llamaydi".

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 5-iyun
№ O'RQ—930

# O'ZBEKISTON PREZIDENTI ANQARAGA KELDI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan birga Turkiyaga rasmiy tashrif bilan keldi.**

Poytaxtning "Esonbug'a" aeroportida davlatimiz rahbarini Turkiya vitse-prezidenti Javdat Yilmaz va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi. Oliy martabali mehmonlar sharafiga faxriy qorovul saf tortdi.

6-iyun kuni ikki mamlakat yetakchilari raisligida oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yig'ilishi bo'lib o'tadi.

Muzokaralar doirasida O'zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya, transport-kommunikatsiya, ta'lim va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni kengaytirish masalalari atroflicha muhokama qilinadi.

Tashrif dasturiga muvofiq, ilk bor ikki mamlakat yetakchi korxonalari va kompaniyalari rahbarlari bilan qo'shma uchrashuv o'tkazilishi ham rejalashtirilgan.

**O'zA.**

# HAJ TADBIRLARI YUQORI SAVIYADA TASHKIL ETILGANI TA'KIDLANDI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Musulmonlar idorasi raisi, muftiy shayx Nuriddin Xoliqnazar bilan telefon orqali muloqot qildi.**

Davlatimiz rahbari muborak Haj ziyoratiga tayyorgarlik jarayonlari, yurtdoshlarimiz uchun yaratilgan sharoitlar, ularning salomatligi va kayfiyati haqida so'radi.

Shayx Nuriddin Xoliqnazar Shavkat Mirziyoyevga, avvalo, muborak joylarda ibodat fayzi bilan yurgan hojilarimizning salomi va duolarini yetkazdi.

Bu yil ham Haj tadbirlari yuqori saviyada, tartibli tashkil etilgani ta'kidlandi. Hududlardagi Haj markazlari orqali ishlar uyushqoqlik bilan olib borildi. Vazirlar Mahkamasi boshchiligida Din ishlari bo'yicha qo'mita, Tashqi ishlar vazirligi, Transport vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqa tuzilmalar hamkorligida ziyoratchilar uchun barcha sharoit yaratildi.

Ayni paytda qariyb 12 ming nafar yurtdoshlarimiz Saudiya Arabistonida bo'lib turibdi. Jami 15 ming 130 nafar fuqaro Haj ibodatiga muyassar bo'ladi. Ularga 300 nafar guruh rahbari, 50 nafar oliy toifali shifokor, oshpazlar, tarjimonlar va boshqa ko'makchilar hamrohlik qiladi.

Bu kabi e'tibor va sharoitlarni arabistonlik mutasaddilar ham yuqori baholab, O'zbekiston Prezidentiga hurmat va duolarini izhor etmoqdalar.

Bu yildan boshlab bir yangilik — Saudiya Arabistonida bo'lib turgan diniy soha xodimlari hamda qori ziyoratchilar tomonidan Qur'oni karimni xatm qilish yo'lga qo'yildi. Hozirgacha 1 ming 515 ta xatm o'qilib, yurtimizga tinchlik, xalqimizga farovonlik tilab duolar qilingan.

Davlat rahbari yurtdoshlarimiz muqaddas Haj ibodatini mukammal ado etib, sog'-omon kelishlarini tiladi. O'zbekistonga qaytgach hojilar jamiyatimizdagi mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlar tarbiyasi va oilalar totuvligida ibrat bo'lishlariga umid bildirdi.

Suhbat samimiy va ko'tarinki ruhda o'tdi.

**O'zA.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

QARORI

## KINEMATOGRAFIYA SOHASINI YANADA RIVOJLANTIRISH HAMDA MAMLAKATIMIZ TARIXIGA BAG'ISHLANGAN FILMLAR TURKUMINI YARATISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA

Kinematografiya sohasini yangi bosqichga ko'tarish, milliy davlatchiligimizning uch ming yildan ziyod tarixini, buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini aks ettiruvchi filmlar turkumini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash maqsadida:

**1.** Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, Kinematografiya agentligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi, O'zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi hamda ilmiy-ijodiy jamoatchilikning takliflari asosida **2024 — 2027-yillarga mo'ljallangan "Tirik tarix" filmlar turkumini yaratish dasturi** (keyingi o'rinlarda — "Tirik tarix" dasturi) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ushbu dastur orqali quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilansin:

xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyati, azaliy qadriyat va an'analari, ezgu orzu-intilishlarini chuqur ilmiy asoslarga tayanib, to'laqonli aks ettirish;

Vatan ozodligi va ravnaqi yo'lida kurash olib borgan buyuk sarkarda va davlat arboblarining murakkab hayoti va davlatchilik faoliyatini xolis va haqqoniy ko'rsatib berish;

tariximizda yorqin iz qoldirgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, alloma va mutafakkirlar, shoir va adiblar, ma'rifatparvar jadid bobolarimiz, atoqli san'atkorlarning ilmiy-ijodiy merosi, ularning umumbashariy tamaddun rivojiga qo'shgan munosib hissasini yuksak g'oyaviy-badiiy saviyada namoyish etish.

**2.** Quyidagilar:

a) **Kinematografiyani rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy komissiya** (keyingi o'rinlarda — Milliy komissiya) tuzilsin hamda uning tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Milliy komissiyaning **asosiy vazifalari** etib quyidagilar belgilansin:

"Tirik tarix" dasturi doirasida hamda davlat buyurtmasi asosida yaratiladigan filmlarni moliyalashtirish manbalarini belgilash va filmlarni ishlab chiqarish uchun qo'shimcha mablag'larni jalb qilish;

**(Davomi 2-betda).**

# O'ZBEKISTONNING YANA BIR TASHABBUSI XALQARO HAMJAMIYAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLANDI

**BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston taklifi bilan ishlab chiqilgan Markaziy Osiyoda giyohvandlik moddalari savdosi va giyohvandlikka qarshi kurashishga qaratilgan rezolyutsiyani bir ovozdan qabul qildi**



*Joriy yil 4-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston tashabbusi bilan "Markaziy Osiyo davlatlarining giyohvandlik bilan bog'liq muammolarni samarali hal etish va bartaraf etish uchun yagona front bo'lib harakatlanish va hamkorlik qilishga tayyorligi" rezolyutsiyasini bir ovozdan qabul qildi, deb xabar bermoqda "Dunyo" AA muxbiri.*

Rezolyutsiyaga 30 dan ortiq a'zo davlatlar hammualliflik qildi.

Hujjat loyihasini Bosh Assambleyada taqdim etar ekan, O'zbekistonning BMTdagi doimiy vakili Ulug'bek Lapasov rezolyutsiya konsepsiyasi O'zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqi asosida ishlab chiqilganini alohida ta'kidladi. Jumladan, ushbu nutqda davlatimiz rahbari tomonidan Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlarini qamrab oladigan Giyohvandlikka qarshi umumiy Harakatlar rejasini ishlab chiqish tashabbusi ilgari surilganini alohida qayd etish joiz.

3

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

QARORI

# KINEMATOGRAFIYA SOHASINI YANADA RIVOJLANTIRISH HAMDA MAMLAKATIMIZ TARIXIGA BAG‘ISHLANGAN FILMLAR TURKUMINI YARATISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

**(Davomi. Boshlanishi 1-betda).**

kinoindustriyani iqtisodiyotning alohida tarmog‘i sifatida rivojlantirish, jumladan, imtiyoz va preferensiyalarga ega maxsus kino hududlari tashkil etish, zamonaviy moddiy-texnik bazaga ega infratuzilmani yaratish hamda kinoprokat tizimini rivojlantirish choralarini ko‘rish;

filmlar ishlab chiqarishda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish, alohida masalalar bo‘yicha ishchi guruhlar tuzish, muhofaza qilinadigan hudud va obyektlarda suratga olish, maxsus va harbiy texnikalarni jalb qilish hamda boshqa tashkiliy masalalarni hal etish;

milliy filmlarni xorijiy kinobozor va kinofestivallarda keng targ‘ib qilish, filmlarni ishlab chiqarishga mahalliy va xorijiy hamkorlar, nodavlat tashkilotlar hamda homiylarni jalb qilish;

milliy kinematografiya sohasi ijodkorlari, mutaxassislari va soha vakillarini rag‘batlantirish, ijtimoiy muhofaza qilish va qo‘llab-quvvatlash, xalqaro kinofestivallar g‘oliblarini taqdirlash tizimini yo‘lga qo‘yish;

Kinematografiya agentligi qoshida tashkil etiladigan, “Tirik tarix” turkumidagi filmlarning budjetini ko‘rib chiqish va ekspert xulosasini berish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, kino sohasi bo‘yicha iqtisodchi va moliyachi mutaxassislardan iborat Ekspertlar guruhining tarkibi va xulosalarini tasdiqlash;

“Tirik tarix” dasturi ijrosi bilan bog‘liq joriy ishlarning mas’ul vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar va boshqa tashkilotlar tomonidan bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish maqsadida Kuzatuv guruhi tuzish. Kuzatuv guruhi hisobotlari va tahliliy ma’lumotlari har oy yakunlari bo‘yicha Milliy komissiya raisiga va navbatdagi yig‘ilishlarga kiritib borilishini ta’minlash.

b) **Filmlarning g‘oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko‘maklashuvchi milliy kengash** (keyingi o‘rinlarda — Milliy kengash) tuzilsin hamda uning tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Milliy kengashning **asosiy vazifalari** etib quyidagilar belgilansin:

kino san’atini jamiyatning ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy hayotida, jumladan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim strategik vosita sifatida shakllantirish;

“Tirik tarix” dasturi doirasida yaratiladigan filmlarning g‘oyaviy va badiiy mazmuni, adabiy va rejissyorlik ssenariylarining yuksak saviyada bo‘lishini ta’minlash choralarini ko‘rish, shuningdek, ijodiy guruhlarga nisbatan aniq vazifa va talablar belgilash hamda tayyorlangan kinoloyihalarni ko‘rib chiqib baholash;

davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqariladigan kinomahsulotlarni muvofiqlashtirish, ularni yaratish uchun ustuvor mavzular va janrlar bo‘yicha kvotalarni belgilash, shuningdek, Milliy komissiyaga ishlab chiqarishi boshlangan kinoloyihalarning hajmini oshirish (qisqartirish) yoki vaqtincha to‘xtatib turish bo‘yicha takliflar kiritish;

“Tirik tarix” dasturidagi kinoloyihalarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘ladigan tarixiy faktlar va ma’lumotlarni aniq va ishonchli asosda to‘plash va amaliy maslahatlar berish maqsadida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi qoshida tegishli soha mutaxassislaridan iborat ekspertlar ilmiy guruhini tashkil etish. Ushbu guruh tomonidan tayyorlangan tahliliy materiallarni Milliy kengash yig‘ilishlarida muhokama qilib borishni yo‘lga qo‘yish.

Kinematografiya agentligi Milliy komissiya va Milliy kengashning ishchi organi etib belgilansin hamda ularga har chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar va mavjud muammolarni tahlil qilgan holda hisobot kiritib borsin.

**3.** Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq “Tirik tarix” dasturi doirasida:

filmlarni ishlab chiqarishda Fanlar akademiyasi, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi va boshqa ilmiy-ma’rifiy muassasalar tarixiy-ilmiy va badiiy masalalar bo‘yicha asosiy hamkorlar hisoblanadi;

Milliy kengash takliflari asosida Milliy komissiya tomonidan filmlarni ishlab chiqarishning aniq muddatlari ko‘rsatilgan rejasi tasdiqlanadi;

filmlar ishlab chiqarish uchun **kinoloyihalarni tayyorlash bo‘yicha tanlov** tashkil etiladi va eng yaxshi kinoloyihalar tanlab olinadi;

kinoloyihalarga muvofiq filmlar ishlab chiqarish uchun **taqdimot shaklidagi tanlovlar** (pitching) **asosida kinokompaniyalar aniqlanadi**;

filmlarni ishlab chiqarish budjeti xorijiy tajriba asosida bozor konyunkturasini hisobga olgan holda shakllantiriladi;

badiiy va badiiy-publitsistik filmlar zamonaviy xorijiy formatda yaratiladi hamda ularning namoyishi kinoteatrlar va milliy telekanallarda, shuningdek, xorijiy tillarga dublyaj qilinib, chet el telekanallari va striming platformalarida tashkil etiladi;

filmlarni O‘zbekistonda shakllangan dublyaj san’ati maktabi an’analarini davom ettirgan holda xorijiy tillarga tarjima va dublyaj qilish bo‘yicha tanlovlar tashkil qilinadi hamda zarur chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

filmlarni ishlab chiqarishda ustuvor ravishda “O‘zbekfilm” kinokonserni” DUKga import shartnomasi asosida yetkazib beriladigan kino uskunalaridan ijara asosida foydalaniladi, boshqa tadbirkorlik subyektlarining kino uskunalari zamonaviy va ijara to‘lovi arzon bo‘lgan hollar bundan mustasno;

“O‘zbekfilm” kinokonserni” DUK tarkibidagi mavjud suratga olish pavilyonlari va ulardagi 3D o‘lchamdagi ekranlardan, birinchi navbatda, “Tirik tarix” dasturi doirasidagi filmlarni ishlab chiqarishda foydalaniladi;

filmlarning boshlang‘ich materiallari uchun “O‘zbekiston milliy kinofondi” davlat muassasasida alohida ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi va ular maxsus server qurilmalarida saqlanishi ta’minlanadi;

filmlarni ishlab chiqarishga tayyorgarlik ko‘rish doirasida respublika bo‘ylab professional va havaskor kino aktyorlarining elektron katalogi shakllantiriladi;

respublikada faoliyat yuritayotgan kinostudiyalar va teatrlarda saqlanayotgan tarixiy liboslar inventarizatsiyadan o‘tkaziladi, davrlarga mansubligidan kelib chiqib, ularning onlayn elektron katalogi yaratiladi;

“Tirik tarix” turkumida ishlab chiqariladigan kinoloyihalar alohida belgi (logotip) asosida yaratiladi.

**4.** Kinematografiya agentligiga mahalliy va xorijiy kinokompaniyalar bilan hamkorlik (co-production) asosida “Tirik tarix” dasturi doirasidagi filmlarni yaratishga ruxsat berilsin hamda ushbu hamkorlikda filmlarni shartnoma asosida ishlab chiqarish va targ‘ibotini amalga oshirish uchun qo‘shimcha mablag‘larni yo‘naltirishga qaratilgan zarur choralar ko‘rilsin.

**5.** Belgilansinki:

davlat buyurtmasi asosida kinomahsulotlarni ishlab chiqarishga ularning badiiy konsepsiyasi hamda moliyalashtirish hajmi va manbalari Milliy komissiya va Milliy kengashning ijobiy xulosalari asosida ruxsat beriladi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirlik va idoralar, davlat ulushi mavjud xo‘jalik birlashmalariga budjetdan tashqari mablag‘lar va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan tegishli sohalarga oid filmlar ishlab chiqarishga mablag‘larni yo‘naltirishga ruxsat etiladi.

**6.** Mamlakatda kinoteatrlar tarmog‘ini rivojlantirish maqsadida respublikaning har bir tumanida (shahrida) kinoteatrlar barpo etish, tarkibida kinozallari soni 2 tadan va tomoshabinlar sig‘imi 300 kishidan kam bo‘lmagan savdo-ko‘ngilochar komplekslarini qurish uchun tadbirkorlik subyektlariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari Vazirlar Mahkamasining qarori bilan davlat-xususiy sheriklik asosida bepul ajratiladi.

Vazirlar Mahkamasi **ikki oy muddatda** ushbu tizimni samarali tashkil qilish bo‘yicha tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini qabul qilsin.

**7.** O‘zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi va Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazining Toshkent shahri, Navoiy shohko‘chasi, 15-uyda joylashgan “Kinochilar uyi”ni **“O‘zbekiston Milliy kino san’ati saroyi”** deb qayta nomlash haqidagi taklifi ma’qullansin.

Belgilansinki:

O‘zbekiston Milliy kino san’ati saroyi milliy va retro filmlarning targ‘ibotini amalga oshirish, kinosan’atkorlarning ijodiy kechalari, uchrashuvlarini o‘tkazish, yosh kinochilarning mahoratini oshirish va “Ustoz — shogird” an’analarini davom ettirishga xizmat qiladigan ijodiy maskan sifatida faoliyat yuritadi;

vazirlik va idoralar, oliy ta’lim muassasalari har chorakda kamida bir marotaba O‘zbekiston Milliy kino san’ati saroyida madaniy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar, ekskursiyalar tashkil qiladi hamda filmlar namoyishlariga shartnoma asosida jalb qilinadi.

**8.** Milliy komissiya (A.Aripov):

uch oy muddatda ilg‘or xorijiy tajriba asosida milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish, investitsiya mablag‘larini jalb qilish tizimini takomillashtirish va sohada boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish bo‘yicha takliflarni kiritsin;

2025-yil 1-iyunga qadar “O‘zbekfilm” kinokonserni” DUKni zamonaviy kino qurilmalari, texnologik tizimlar va multimedia mahsulotlari bilan jihozlash ishlarini yakunlasin.

**9.** 2025-yil 1-yanvardan boshlab Kinematografiya agentligining iqtisodiy va ijodiy jihatdan faoliyat mustaqilligini ta’minlash maqsadida unga ajratiladigan budjet mablag‘larini alohida xarajatlar iqtisodiy tasnifining bir satrida o‘tkazib berish amaliyoti joriy etilsin.

Bunda Kinematografiya agentligining markaziy apparatini saqlash bilan bog‘liq xarajatlar taqsimoti hamda oylik ish haqi miqdorlari, xodimlarni rag‘batlantirish to‘lovlari Kinematografiya agentligi taqdimnomasiga ko‘ra Milliy komissiya tomonidan belgilanadi.

**10.** Madaniyat vazirligi uch oy muddatda oliy ta’lim muassasasi shaklidagi O‘zbekiston xalqaro kinematografiya akademiyasi (keyingi o‘rinlarda — Kinoakademiya)ni tashkil qilish hamda 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab uning faoliyatini yo‘lga qo‘yishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

**11.** Kinoakademiya Toshkent shahri, Chilonzor ko‘chasi, 1-uyda joylashgan “O‘zbekfilm” kinokonserni” DUK hududidagi binoga (sobiq Tasmani qayta ishlash sexi) operativ boshqarish huquqi asosida joylashtirilsin.

**12.** O‘zbekiston milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi qoshida **kinematografiya sohasi uchun o‘rta maxsus mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash maktabi** (keyingi o‘rinlarda — kinomaktab) tashkil qilinsin. Bunda:

tarixiy-jangovar (blokbaster) filmlarni yaratish bo‘yicha mahalliy va xorijiy mutaxassislarni keng jalb qilgan holda alohida guruhlar va kurslar (kaskadyorlar, pirotexniklar, grimchilar, tarixiy libos va chiroq ustalari hamda boshqalarni tayyorlash) faoliyati yo‘lga qo‘yiladi;

kinomaktabda kinematografiya sohasi uchun o‘rta maxsus mutaxassislar tayyorlashga mo‘ljallangan o‘quv kurslari, seminar treninglar, mahorat darslari tashkil etiladi;

kinomaktabda tahsil olgan ushbu kasb egalari (yordamchi rejissyorlar, operatorlar, rassomlar, chiroqchilar va boshqalar), birinchi navbatda, “Tirik tarix” dasturidagi filmlarni ishlab chiqarishga jalb qilinadi.

Kinomaktab Toshkent shahri, Chilonzor ko‘chasi, 1-uyda joylashgan “O‘zbekfilm” kinokonserni” DUK hududidagi 2 qavatli binoga (sobiq Chilonzor tumani Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi) operativ boshqarish huquqi asosida joylashtirilsin.

**13.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2024-yil yakuniga qadar Kinoakademiya va kinomaktab binolarini kapital ta’mirlash, rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2023 — 2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–459-son qarorida 2024-yil uchun belgilangan mablag‘lardan iqtisod qilingan qismi hisobidan amalga oshirish choralarini ko‘rsin.

**14.** Madaniyat vazirligi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kinematografiya sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi tegishli qarori loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

**15.** Respublikadagi oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida, o‘rta maktablarda kinolektoriylar, tuman (shahar)larda joylashgan madaniyat markazlarida milliy filmlarning bepul namoyishlari tashkil etilsin. Bunda:

madaniyat markazlarida kinozallar tashkil qilinadi hamda ular Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan jihozlanadi;

ushbu namoyishlar Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi huzuridagi axborot-multimedia striming platformasi (uzbekkino.uz) orqali amalga oshiriladi.

**16.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 4-ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

**17.** Kinematografiya agentligi:

a) Samarqand, Buxoro, Xorazm va Toshkent viloyatlari hokimliklari bilan birgalikda 2024-yil 1-oktabrga qadar xalqaro tajribani o‘rgangan holda yurtimizda **“erkin iqtisodiy kinohududlar”** va **“Sinema park”** tashkil qilish bo‘yicha tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini;

b) ikki oy muddatda:

Kinematografiyani rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy komissiya hamda Filmlarning g‘oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko‘maklashuvchi milliy kengash to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlashni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini;

respublika hududlarida kinoijodkorlar va ma’naviyat targ‘ibotchilari ishtirokida “Kinokarvon” tadbirlarini tizimli o‘tkazib borish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasini;

qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

**18.** O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga ushbu qaror mazmuni va ijrosini keng yoritish tavsiya etilsin.

**19.** Ushbu qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul etib madaniyat vaziri O.A.Nazarbekov va Kinematografiya agentligi direktori vazifasini bajaruvchi Sh.T.Rizayev belgilansin.

Qaror ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 5-iyun

## Elchi Olgan BEKAR:

# TURKIYA VA O‘ZBEKISTON O‘RTASIDAGI HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH YO‘LIDA YANGI IMKONIYATLARNI ISHGA SOLISH MUHIM VAZIFAMIZ BO‘LIB QOLADI

*O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi. Tashrif doirasida 6-iyun kuni Anqara shahrida oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi.*

*O‘zbekiston — Turkiya sammiti arafasida Turkiyaning mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi Olgan BEKAR “Dunyo” axborot agentligi muxbiri savollariga javob berdi.*



**— Janob elchi, keyingi yillarda O‘zbekiston — Turkiya o‘rtasidagi munosabatlar izchil rivojlanib, yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Suhbatimizni O‘zbekiston — Turkiya aloqalarining bugungi holati va istiqbollari haqidagi fikrlaringiz bilan boshlasak.**

— So‘nggi yetti yil ichida Turkiya bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi aloqalarda yangi davr boshlandi va ushbu hamkorlik kundan-kunga jadal sur’atlarda rivoj topmoqda. Bu jarayonda ikki davlat rahbarlarining o‘zaro ishonch, hurmat va do‘stlikka asoslangan munosabatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Prezidentining 2017-yilda mamlakatimizga tashrifi chog‘ida munosabatlarimiz strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi. 2018-yilda Turkiya Prezidentining O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida esa Strategik hamkorlik kengashi tashkil qilindi. Ushbu omillar o‘zaro munosabatlarimizni institutsionallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oliy darajadagi muntazam uchrashuv va muloqotlar ikki mamlakat vazirlik va idoralari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish barobarida barcha sohada o‘zaro aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilayotir.

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida Strategik rejalashtirish guruhi, Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha Hukumatlararo komissiya, Turizm qo‘shma komissiyasi va boshqa muntazam maslahatlashuv va hamkorlik mexanizmlari mavjud. Mazkur platformalar o‘zaro aloqalarning yangi “o‘sish nuqtalari”ni aniqlash va qo‘shma loyihalarni ishlab chiqishda faollik ko‘rsatmoqda.

Qayd etish kerakki, bugun Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasida do‘stlik va qardoshlikka asoslangan munosabatlar modeli yaratilgan. Iqtisodiyot va savdo, transport, energetika, sog‘liqni saqlash, madaniyat, ta’lim va mudofaa sanoati kabi sohalarda ikki tomonlama hamkorligimiz tobora ortib bormoqda. Turkiya yangi O‘zbekistonning “Uchinchi Renessans” islohotlar dasturini to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, turk kompaniyalari o‘z bilim va tajribasini o‘zbek sheriklari bilan bo‘lishishga hamda O‘zbekiston infratuzilmasini rivojlantirishga hissa qo‘shishga tayyor.

37 million aholiga ega O‘zbekiston Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni hamda mintaqaviy integratsiyani ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Turkiya ham o‘zining ikki tomonlama aloqalari orqali hamda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida O‘zbekistondagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlamoqda. Biz mintaqa davlatlari o‘rtasidagi hamkorlik va o‘zaro bog‘liqlikning yanada mustahkamlanishiga ishonamiz. Shuningdek, Turkiya O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning farovonligi, rivojlanishi va barqarorligini qo‘llab-quvvatlashda davom etadi.

**— 6-iyun Anqara shahrida ikki davlat rahbarlari raisligida Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yig‘ilishi o‘tkaziladi. Yig‘ilish kun tartibi va kutilayotgan natijalar haqidagi fikrlaringiz bilan o‘rtoqlashsangiz.**

— Darhaqiqat, bugun O‘zbekiston va Turkiya aloqalarini yanada rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari muhokama qilinadi. O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi Strategik hamkorlik kengashining 2020 va 2022-yillarda oliy darajadagi ikkita yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan.

Bu galgi Anqara sammitiga tayyorgarlik doirasida 2023-yil 26-27-sentabr kunlarida tashqi ishlar vazirlari darajasidagi qo‘shma Strategik rejalashtirish guruhi yig‘ilishi o‘tkazildi. Shuningdek, 2023-yil 26-dekabrda qo‘shma savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha Hukumatlararo komissiyaning 7-yig‘ilishi va 2024-yil 14 — 16-yanvar kunlari esa Mudofaa sanoati hamkorligi kengashining ikkinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda savdo-iqtisodiy, energetika, transport, fan, texnologiya, ta’lim, qishloq xo‘jaligi kabi turli sohalarda ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha istiqboldagi vazifalar belgilab olinadi. Turizm, sog‘liqni saqlash va madaniy aloqalarga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Sammit oldidan O‘zbekiston — Turkiya biznes forumi bo‘lib o‘tdi. 6-iyun kuni esa ikki davlat rahbarlari ishtirokida ishbilarmon doira vakillari bilan davra suhbati tashkil etiladi. Qisqa aytganda, har ikki davlat rahbarlari tomonidan belgilangan umumiy maqsad doirasida 2023-yilda 3 milliard AQSH dollaridan oshgan o‘zaro savdo hajmini 5 milliard dollarga yetkazish uchun aniq qadamlar belgilab olinadi.

Yig‘ilish doirasida ikki davlat rahbarlarining munosabatlarida erishilgan yuksak darajani aks ettiruvchi Qo‘shma deklaratsiyani imzolash ham rejalashtirilgan. Bundan tashqari, aloqa, kadastr, kasb-hunar ta’limi, bojxona, kosmik fanlar, birodarlashgan shaharlar va standartlashtirish kabi sohalarda ko‘plab shartnomalar imzolanishi ko‘zda tutilgan. Eng muhimi, maqsadimiz bitta, u ham bo‘lsa munosabatlarimizni yanada mustahkamlashdir. O‘zbekiston tomonining, Prezidentlarning ham fikri shunday. Modomiki, maqsad bir, niyat mushtarak ekan, biz, mas’ullar uchun ishlash bag‘oyat oson kechadi. Aminmanki, davlatlarimiz rahbarlari namoyish etgan iroda doirasida munosabatlarimiz kelgusi yillarda bundan-da yuqori darajalarga ko‘tariladi.

Shuningdek, muzokaralar davomida tomonlar xalqaro siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashadilar.

**— O‘zbekiston — Turkiya munosabatlarini iqtisodiy diplomatiyasiz tasavvur qilish qiyin. Bu borada mamlakatlarimiz o‘rtasidagi vaziyat qanday va bugungi globallashuv davrida qaysi sohalarga ko‘proq e’tibor qaratish kerak, deb o‘ylaysiz?**

— Yuqorida aytib o‘tganimdek, ikki tomonlama siyosiy munosabatlarimiz mukammal darajada davom etib kelmoqda. Ularni qo‘llab-quvvatlash uchun savdo hamkorligimizning ahamiyati katta. Aloqalarimizning mohiyatiga qaraydigan bo‘lsak, savdo rishtalari oldingi o‘rinlarga chiqqanini payqash mumkin. Turkiyaning O‘zbekiston tashqi savdosi hajmidagi ulushi 2017 — 2023-yillarda 16 foizga oshdi. Maqsadimiz o‘zaro import va eksportni diversifikatsiya qilish va oshirish hamda qo‘shma loyihalarni ko‘paytirish orqali bu ko‘rsatkichni yanada yaxshilashdir. Shu maqsadda yangi yo‘nalishlarni aniqlab, tegishli choralar ko‘rishni o‘z oldimizga belgilab olganmiz. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi qo‘shma savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha Hukumatlararo komissiya savdo-iqtisodiy aloqalar nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Bu mexanizm ishbilarmon doira vakillari va Savdo-sanoat palatalari o‘rtasidagi hamkorlikni jadallashtirishga xizmat qilyapti. Komissiyaga Turkiya vitse-prezidenti Javdat Yilmaz va O‘zbekiston Bosh vaziri o‘rinbosari, Iqtisodiyot va moliya vaziri Jamshid Qo‘chqorov hamraislik qilmoqda. Komissiyaning 2023-yil 26-dekabrda Anqara shahrida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida 107 moddadan iborat “Harakatlar rejasi” tuzildi. Mazkur dastur ijrosini ta’minlash maqsadida ikki mamlakatning tegishli muassasa va tashkilotlari, tadbirkorlari, Savdo-sanoat palatalari o‘rtasida yaqin aloqalar o‘rnatilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Turkiya O‘zbekistonning energetika va infratuzilma loyihalari, shahar tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha o‘z tajribasi bilan o‘rtoqlashishga tayyor. Ushbu yo‘nalishdagi hamkorligimizni tarmoqlar asosida rivojlantirishni maqsad qilganmiz. Joriy yilda O‘zbekiston ishbilarmon doira vakillari mamlakatimizning ko‘plab hududlarida bo‘ldi. Safar davomida bo‘lib o‘tgan uchrashuv va muzokaralarda mebelsozlik, shisha, tilla va zargarlik buyumlari, charm va tibbiyot sohalarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish hamda tajriba almashish bo‘yicha “yo‘l xaritalari” belgilab olindi.

Biz, shuningdek, O‘zbekiston bilan savdo-iqtisodiy hamkorligimizni mintaqaviy doirada ham rivojlantirishga harakat qilyapmiz. Birgalikda mintaqada yirik qo‘shma loyihalarni amalga oshirishimiz uchun katta salohiyat mavjud. Shu nuqtayi nazardan, 2023-yil 16-martda Anqarada imzolangan Turkiy investitsiya jamg‘armasi to‘g‘risidagi Bitim O‘zbekiston tomonidan 2023-yil 1-noyabrda ma’qullanganidan mamnunmiz. Turkiy investitsiya jamg‘armasi doirasida ham ikki tomonlama hamkorligimizni rivojlantirishdan manfaatdormiz.

**— Diplomatik faoliyatingiz davomida mamlakatimizning ko‘plab hududlarida bo‘lasiz. Umuman, joylardagi investitsiyaviy muhit, ayniqsa, xorijiy ishbilarmonlar uchun yaratilgan sharoitlar haqidagi fikrlaringiz biz uchun qiziq.**

— O‘zbekistonning har bir viloyati keng imkoniyatlar va salohiyatga ega. Bu haqda juda ko‘p ijobiy fikrlar aytishim mumkin. O‘zim Farg‘ona vodiysi, Buxoro, Samarqand, Xiva, Nukus shaharlariga tez-tez borib turaman. Biz nafaqat Toshkentdagi, balki O‘zbekistonning ko‘plab shaharlarida faoliyat olib borayotgan Turkiya tashkilotlari, ishbilarmon doira vakillari, hatto o‘zbek birodarlarimiz bilan tez-tez uchrashib, tadbirkorlik imkoniyatlarini baholaymiz.

Ma’lumki, Samarqand shahrida Turkiya Bosh konsulxonasi faoliyat yuritmoqda. O‘zbekistonda ishlayotgan turk kompaniyalari Toshkentdan boshqa shaharlarga ham investitsiya kiritmoqda. Biz investitsiyalarning butun mamlakat bo‘ylab joylashuvini qo‘llab-quvvatlaymiz.

Bugungi kunda Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasida haftada 90 ga yaqin o‘zaro reyslar yo‘lga qo‘yilgan. Parvozlar Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg‘ona shaharlariga amalga oshirilmoqda. Mana yaqinda Nukus shahri ham bular qatoriga qo‘shildi. Bu nimadan dalolat beradi?

Parvozlar soni naqadar ko‘p bo‘lsa, muloqot shu qadar ortadi. Bunga mos ravishda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy munosabatlar o‘sadi. Joylarga sayohat qilsangiz, u yerda biznes ishlarini yuritayotgan turk tadbirkorlarini ko‘p uchratishingiz mumkin. O‘zbekiston Prezidenti janoblari hududlarga safar qilganlarida joylardagi turk tadbirkorlari bilan ham uchrashadilar, biz bundan juda xursand bo‘lamiz. Biz bu yo‘nalishda to‘xtab qolmaymiz, oldimizda hali ko‘p ishlar bor. Muhimi, umumiy iroda va xohish mavjud.

**— O‘zbekistonning xalqaro tashabbuslari, ichki islohotlari va o‘zgarishlar haqida nima deya olasiz?**

— Yangi O‘zbekiston nomi bilan “Uchinchi Renessans”ni amalga oshirish choralarini juda muhim va qadrli, deb bilamiz. Ushbu islohotlar siyosatini Turkiya to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Kerak vaqtda o‘z tajribalarimiz bilan o‘rtoqlashyapmiz. O‘zbekistonlik do‘stlarimiz uchun mutaxassislar, konsultantlar yuboryapmiz. O‘zbekiston nafaqat o‘zini takomillashtirayotgan davlat, balki u o‘z mintaqasida tinchlik makoniga ham aylandi. 2017-yildan keyingi davrni kuzatadigan bo‘lsak, davlat qo‘shni mamlakatlar bilan ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirayotganini, mavjud masalalarga birgalikda yechim topib, o‘zaro iqtisodiy manfaatga tayanuvchi hamkorlik o‘rnatilayotganiga guvoh bo‘lyapmiz.

Natijada esa Turkiy davlatlar tashkiloti va Markaziy Osiyo yetakchilari forumi juda faollashib bormoqda. Bularning barchasi Markaziy Osiyoning qalbi — O‘zbekiston tashlayotgan odimlar orqali ekanini bemalol ayta olamiz. Yana bir karra ta’kidlayman, biz yangi O‘zbekistonning islohotlar siyosatini qo‘llab-quvvatlaymiz. Ham mintaqaviy, ham xalqaro miqyosda hamkorligimizni, birdamligimizni yanada mustahkamlaymiz.

**— O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarning rivoji haqida ham to‘xtalsangiz...**

— Turklar va o‘zbeklar do‘st va qardosh xalqlar sifatida tarixiy mushtarak qadriyatlarga ega. Biz ikki davlat fuqarolarini yagona xalq deb bilamiz. Bugun Turkiyada ko‘chadan o‘tayotgan odamdan so‘rasangiz, ular O‘zbekiston fuqarolarini “o‘zbek birodarlarim” deb atashadi. Bunday yaqinlikni ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro sayyohlik almashinuvlari ham tasdiqlaydi. Turkiya va O‘zbekiston fuqarolari mamlakatlarimiz bo‘ylab vizasiz sayohat qilishlari mumkin. 2023-yilda Turkiyaga 470 mingdan ortiq o‘zbekistonlik sayyohlar borgan. Turkiya fuqarolari Samarqand, Buxoro va Xiva, shuningdek, Toshkent shaharlarini ko‘rishga ko‘proq qiziqish bildirmoqda.

O‘zbekistonda turk seriallari va teledasturlari katta qiziqish bilan tomosha qilinishidan xabardormiz. Shuningdek, Turkiya stipendiyalari dasturi doirasida ko‘plab o‘zbekistonlik talabalar mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olmoqda. Bundan tashqari, ikki davlatda ham ko‘plab o‘zbeklar va turklar istiqomat qiladi. Bursa Uludag‘ universiteti qoshidagi O‘zbek tili va madaniyati markazi yaqinda ishga tushdi.

Insoniy va madaniy sohalardagi bunday o‘zgarishlarning barchasi qardoshlik rishtalari doirasidagi til va madaniyatimiz mushtarakligining tabiiy natijasidir. Shu bilan birga, umumiy qadriyatlarimizni hisobga olgan holda madaniy-gumanitar jabhadagi hamkorligimizni yanada rivojlantirish, xalqlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash yo‘lida yangi imkoniyatlarni ishga solish muhim vazifamiz bo‘lib qoladi.

**“Dunyo” AA.**

**So‘nggi besh yilda Turkiyadan O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 10 barobar oshdi.**

# O'ZBEKISTONNING YANA BIR TASHABBUSI XALQARO HAMJAMIYAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLANDI

← 1

Hujjatda O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024 — 2028-yillarga mo'ljallangan milliy strategiyaning asosini tashkil etuvchi konseptual qoidalar inobatga olingan.

Rezolyutsiyada ta'kidlanganidek, Markaziy Osiyoda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mintaqada giyohvandlik moddalari savdosi va giyohvandlikka qarshi kurash bilan chambarchas bog'liq. O'zbekistonning yangi siyosati tufayli mintaqada yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Mintaqa davlatlarining mavjud ijobiy tajribasi asosida giyohvandlik muammosini hal qilishga global yondashuv doirasida giyohvandlikka qarshi samarali hamkorlikka intilishi ta'kidlangan.

Rezolyutsiyada a'zo davlatlar Markaziy Osiyo mamlakatlarining giyohvandlikdan xoli jamiyatni faol targ'ib qilishga qaratilgan sa'y-harakatlarini, bu boradagi xalqaro majburiyatlarni bajarishga sodiqligini, giyohvandlik bilan bog'liq masalalar bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qat'iy intilishlarini ijobiy qayd etadilar.

Xususan, hujjatda giyohvandlik vositalari va ularning prekursorlarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha kompleks ishlarni amalga oshirish, strategik tashabbus va chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Hududiy elektron ma'lumotlar bazasini joriy etish, so'rovnomalar va tadqiqotlar o'tkazish, axborot texnologiyalari hamda ijtimoiy tarmoqlardan giyohvandlik bilan bog'liq jinoiy maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish, virtual valyutalarni tartibga solish, narkobiznes, jumladan, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllari bilan aloqadorligi nuqtayi nazaridan moliyaviy asoslarga putur yetkazish kabi aniq amaliy choralar ko'rish muhimligiga e'tibor qaratilgan.

Rezolyutsiya, shuningdek, a'zo davlatlar, BMTning tegishli tuzilmalari, xalqaro moliya institutlari va boshqa manfaatdor tomonlarni giyohvandlik moddalari bilan bog'liq muammolarni har tomonlama hal etishda Markaziy Osiyo bo'yicha hamkorlikni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashga chaqiradi.

Bosh Assambleya yalpi majlisi muhokamalarida delegatsiyalar rezolyutsiyani qo'llab-quvvatlab, ushbu muhim rezolyutsiyani ilgari surishda O'zbekiston rahbariyatiga minnatdorlik bildirdilar. Mazkur hujjat jahonda giyohvandlik muammosiga qarshi global kompleks kurashga katta hissa qo'shishi alohida qayd etildi.

Shuningdek, so'zga chiqqan delegatlar O'zbekiston delegatsiyasining konsensus natijaga erishish uchun "o'zaro maqbul murosa va yechimlar"ni topish bo'yicha izchil sa'y-harakatlarini ta'kidladilar. "Hujjatni ochiq, oshkora va inklyuziv tarzda ko'rib chiqish", shuningdek, uning konsensus asosida qabul qilinishi yaxshi ijobiy holat yaratishi va "BMTda giyohvandlikka qarshi boshqa tashabbuslar bo'yicha konsensusga erishish uchun yaxshi asos bo'lishi" bildirildi.

**"Dunyo" AA.**
Nyu-York

Muloqot

# SAVDO ALOQALARIMIZ YANADA KENGAYTIRILADI

*Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev Misr xalqaro hamkorlik bo'yicha ishbilarmonlar kengashi delegatsiyasi a'zolari bilan uchrashdi.*

Uchrashuvda O'zbekiston va Misr o'rtasidagi hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari, jumladan, savdo-iqtisodiy, sog'liqni saqlash sohalaridagi aloqalarni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, ikki davlat rahbarlarining muntazam va samarali muloqotlari tufayli O'zbekiston va Misr o'rtasidagi keng qamrovli sheriklik munosabatlari jadal rivojlanmoqda.

Xususan, O'zbekiston va Misr o'rtasida barcha darajadagi muloqot va almashinuvlar davom etayotir. O'zaro savdo hajmi va qo'shma korxonalar soni ortib borayotganligi, qishloq xo'jaligi, energetika va turizm sohalarida hamkorlik loyihalari amalga oshirilayotganligi alohida e'tirof etildi.

Muloqot chog'ida ikki davlat ishbilarmonlari o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash va mavjud salohiyatni to'liq ishga solish muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, kelgusidagi istiqbolli hamkorlik rejalari muhokama qilindi.

**"Xalq so'zi".**

Qonunchilik palatasi qo'mitalarida

# HARBIY XIZMATCHILAR HUQUQLARI VA PARLAMENT NAZORATI

*Prezidentimiz tashabbusi bilan 2018-yilda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasida davlat harbiy tashkilotini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida harbiy xizmatchilarni va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirishga doir yangi mexanizmlarni ishlab chiqish vazifasi belgilangan.*



Harbiy xizmatchilardan kelib tushayotgan murojaatlarning mazmuni, ko'lami va ularda ko'tarilgan masalalar hal etilganligi darajasi ushbu vazifalar ijrosini baholovchi sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Kecha Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan majlisda shu haqda so'z yuritilib, mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Majlisda Mudofaa vazirligi rahbariyati tomonidan harbiy xizmatchilarning murojaatlarini ko'rib chiqish holati bo'yicha batafsil ma'lumot berildi. Shu bilan birga, harbiy xizmatni o'tash uchun qulay va xavfsiz shart-sharoitlarni, zamonaviy infratuzilmani yaratish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga munosib turmush sharoitini tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalib o'tildi.

Harbiy prokuratura mas'ullari hamda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili so'zga chiqib, ularga harbiy xizmatchilardan kelib tushgan murojaatlarda ko'tarilgan masalalar va ularning yechimi borasida bajarilgan ishlar haqida axborot berdi.

Shu bilan birga, 2023-yil 13-martdagi "Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmonida belgilangan bir qator vazifalar hamda ularning ijrosi holati ham muhokama markazida bo'ldi.

Munozaralar davomida deputatlar harbiy xizmatchilar bilim va salohiyatini oshirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, murojaatlarida ko'tarilgan masalalarni tizimli ravishda hal etish borasida tavsiyalarni bildirdi.

Eshituvda berilgan axborot, bildirilgan fikr va mulohazalar yakuni bo'yicha qo'mitaning tegishli qarori qabul qilinib, unda vazifalar ijrosini ta'minlashga qaratilgan bir qancha takliflar o'z aksini topdi.

**Nodira JONIBEKOVA, Qonunchilik palatasi deputati:**

*— Keyingi yillarda mamlakatimizda harbiy xizmatning nufuzini ko'tarish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Qo'mita majlisida bu boradagi sa'y-harakatlar atroflicha ko'rib chiqilib, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarga e'tibor qaratildi va bu bo'yicha zarur tavsiyalar berildi.*

Senat qo'mitalarida

# NOGIRONLIGI BOR SHAXSLARNING HIMOYASI KAFOLATI KUCHAYTIRILMOQDA

*Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi majlisi bo'lib o'tdi.*
*Unda parlament yuqori palatasining navbatdagi yalpi majlisida ko'rib chiqilishi rejalashtirilayotgan qonunlar hamda boshqa masalalar dastlabki tarzda muhokamadan o'tkazildi.*



Xususan, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun chuqur tahlil qilindi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda yurtimizda nogironligi bo'lgan shaxslarga boshqa fuqarolar bilan teng huquq va teng shart-sharoit yaratishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Ammo hozirgi tezkor zamon bu toifadagi insonlar uchun o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi qo'shimcha shart-sharoit yaratishni taqozo etayotgani ham bor gap. Bu esa nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirishni kun tartibiga olib chiqdi.

Yangi qonun bilan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunga nogironligi bo'lgan shaxslarning odil sudlovdan foydalanishga, saylash va saylanishga, referendumda ishtirok etishga, shuningdek, ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratilishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Shu ma'noda, ushbu qonun inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari himoyasini to'liq ta'minlashga xizmat qiladi, deyish mumkin.

Qo'mita majlisida "Ma'muriy islohotlar doirasida ta'lim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ham ko'rib chiqildi.

Senatorlar tomonidan qayd etilganidek, mazkur qonun oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yaxlit tizimini shakllantirishga, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarining sifatini oshirishda ayni muddaodir.

Qonun bilan ayrim qonun hujjatlariga bir qator respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining ma'muriy islohotlar doirasida transformatsiya qilinishi natijasida ularning rasmiy nomlanishini va vakolatlarini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga o'rta maxsus, professional, oliy ta'limni hamda oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashqi baholashning yangi tizimi joriy etilishini, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni, shuningdek, nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash bo'yicha vakolatlar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi o'rtasida taqsimlanishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Majlis yakunida Senat qo'mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

# XALQARO HUJJATLAR RATIFIKATSIYASINING AFZALLIKLARI NIMADA?

*Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi majlisi bo'lib o'tdi.*

Unda senatorlar, mas'ul vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat Kengashlari doimiy komissiyalari vakillari, ekspertlar, Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirda Senatning navbatdagi yalpi majlisiga kiritilishi reja qilinayotgan "Madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha xalqaro tadqiqot markazi Ustaviga (Rim, 2013-yil 29-noyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi hamda "Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risidagi Singapur shartnomasini (Singapur, 2006-yil 27-mart) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonunlar muhokama markazida bo'ldi.

Senatorlar ta'kidlaganidek, O'zbekistonning xalqaro tadqiqot markazi Ustaviga qo'shilishi mamlakatimizda restavratsiya qilish bo'yicha xalqaro tajribani muvaffaqiyatli joriy etish imkonini beradi. Qolaversa, bu ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish va O'zbekistonning madaniy merosini butun dunyoga tanitish hamda shu sohada ishlayotgan xodimlarning malakasini tizimli ravishda oshirishda ham qo'l keladi.

O'z navbatida, "Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risidagi Singapur shartnomasini (Singapur, 2006-yil 27-mart) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun har xil turdagi tovar belgilari ko'rinishidagi intellektual mulkni himoya qilishga qaratilgan.

Aytib o'tilganidek, Singapur shartnomasini ratifikatsiya qilish tovar belgilarini himoyalashdan manfaatdor bo'lgan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslariga shartnomada ishtirok etuvchi barcha mamlakatlarda teng huquqlarga ega bo'lish imkonini beradi.

Majlis davomida milliy qonunlarning mazkur xalqaro hujjatlar qoidalariga muvofiqligi, ular qabul qilinishidan kutilayotgan natijalar hamda amalga oshirish mexanizmlari atroflicha muhokama etildi.

Majlis yakunida ko'rilgan masalalar yuzasidan Senat qo'mitasining tegishli qarorlari qabul qilindi.

**"Xalq so'zi".**

## Narkologik kasalliklar profilaktikasi:

# QONUN IJROSI BO'YICHA TAVSIYALAR

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasi tomonidan "Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida"gi Qonun ijrosi holatini nazorat-tahlil tartibida o'rganish yakunlariga bag'ishlangan sayyor yig'ilish o'tkazildi.*

Qayd etilganidek, mamlakatimizda narkologik kasalliklarning oldini olish, tashxislash va davolash, ularga chalingan shaxslarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etilib, hududlarda uning filiallari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Narkologiya muassasalarini tibbiyot uskunalari bilan ta'minlash (qo'shimcha jihozlash) uchun 2022-yilda 8,1 mlrd. so'm, 2023-yilda 24,5 mlrd. so'm mablag' ajratilgan bo'lib, ushbu mablag'lar doirasida zarur tibbiy jihozlar xarid qilingan va respublikadagi narkologiya muassasalariga yetkazilgan.

Shuningdek, narkologiya xizmatining zamonaviy tuzilmasi, vazifalari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, narkologiya muassasalarining yangilangan shtat normativlari ishlab chiqilgan.

Tadbirda amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda, joylarda ayrim muammolar ham mavjudligi qayd etildi. Xususan, 2-sonli Farg'ona narkologiya dispanseri uchun sotib olingan raqamli rentgen uskunasi ushbu muassasada tegishli xona mavjud bo'lmagani sababli foydalanilmasdan tashqarida saqlanayotgani e'tirozga sabab bo'ldi.

Respublika bo'yicha narkolog shifokor shtatlari bandligi masalasi ham muhokama markazida bo'ldi. Parlament a'zolari ushbu yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladilar.

Muhokama davomida deputatlar "Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida"gi hamda "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunlarda belgilangan normalarning ijrosini ta'minlash bo'yicha bir qator tavsiyalarni bildirdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

**Mavluda ADHAMJONOVA, Qonunchilik palatasi deputati:**

*— Narkologik kasalliklar profilaktikasini ta'minlash va ularni davolash samaradorligini oshirish choralarini ko'rish bugun, haqiqatan ham, dolzarb. Shu bois yig'ilishda narkologik kasalliklarni erta aniqlash, tashxis qo'yish, uning oldini olish, davolash hamda bemorlarning tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyasini yanada yaxshilash, aholi orasida sog'lom turmush tarziga oid targ'ibot-tushuntirish ishlarini kuchaytirish bo'yicha muhim takliflar ilgari surildi.*

**"Xalq so'zi".**

# O'ZBEKISTON — GERMANIYA ISHBILARMONLAR KENGASHINING NAVBATDAGI MAJLISI O'TKAZILDI

*Poytaxtimizdagi Forumlar saroyida O'zbekiston — Germaniya ishbilarmonlar kengashining VIII majlisi bo'lib o'tdi.*
*Ikki mamlakat vazirlik va idoralari rahbarlari, ishbilarmon doira vakillari va tadbirkorlar ishtirok etgan tadbirda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov va Germaniya iqtisodiyoti Sharqiy qo'mitasi prezidiumi a'zosi Manfred Grundke hamraislik qildi.*

Anjuman

Yig'ilishda davlatlarimiz rahbarlarining uzoqni ko'zlab olib borayotgan siyosati tufayli bugun O'zbekiston va Germaniya munosabati strategik hamkorlikning mutlaqo yangi darajasiga ko'tarilgani ta'kidlandi. Zero, Germaniya O'zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi eng yirik savdo hamkorlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumotga ko'ra oxirgi olti yilda o'zaro savdo aylanmasi ikki karra oshdi. 2023-yil yakuni bo'yicha tovar ayirboshlash miqdori 1 milliard dollarni tashkil etgan. Mamlakatimizda nemis kapitali ishtirokidagi qo'shma korxonalar soni uch barobar ko'paydi. Bunda O'zbekiston — Germaniya ishbilarmonlar kengashi faoliyati muhim ahamiyat kasb etayotgani aytildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 2-may kuni bo'lib o'tgan uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqida mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo'ldagi to'siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish uchun qat'iy qadamlar tashlanganini ta'kidlagan edi. Zero, yurtimizda oxirgi yetti yilda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun muhim qarorlar qabul qilindi. Har bir sarmoyador o'zini erkin va ishonchli his qilishi uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Biznes uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan islohotlar natijasida 200 dan ortiq litsenziya va ruxsatnoma bekor qilinib, soliq turi 13 tadan 9 tagacha kamaytirildi, ayrim soliqlar stavkasi 2 barobar pasaytirildi. Valyuta bozori liberallashtirildi. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 15 foizdan 12 foizga tushirildi, foyda solig'i esa faoliyat turiga qarab 5 — 15 foizni tashkil etmoqda. Qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarda faoliyat yurituvchi korxonalar foyda solig'i to'lashdan to'liq ozod etildi.

Bir so'z bilan aytganda, so'nggi yillarda iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o'sdi. O'tgan yil yakuni bo'yicha ijobiy o'zgarish sur'ati 6 foizga teng bo'ldi. Inflyatsiya 9 foizgacha pasaydi. Savdo aylanmasi ko'rsatkichi muttasil oshmoqda. Valyuta bozori va oltin zaxirasi barqarorligi ta'minlanmoqda. Shu ma'noda, O'zbekiston — Germaniya ishbilarmonlar kengashi majlisi formatidagi tadbirlar mamlakatimizda ayni yo'nalishda olib borilayotgan ishlarning mantiqiy davomidir.

Darhaqiqat, mahalliy va xorijiy investorlarga yaratilayotgan qulayliklar natijasida Yevropa biznesi vakillarida O'zbekistonga qiziqish tobora ortyapti. Uchrashuvda, shularni inobatga olgan holda Germaniya ishbilarmon doiralari bilan "yashil" energetika, raqamlashtirish, inson va mehnat resurslari, oziq-ovqat xavfsizligi, sog'liqni saqlash va farmatsevtika, metallurgiya, kimyo, avtomobilsozlik, elektrotexnika hamda boshqa ko'plab sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

Muloqot chog'ida respublikamizda faoliyat yuritayotgan "Knauf", "Klaas", "Papenburg", "Falk Porsche", "Siemens", "Linde" singari qator nufuzli kompaniyalar faoliyati e'tirof etildi. "Deutsche Bank", Germaniya taraqqiyot banki "KfV", "Commerzbank" kabi moliya muassasalari mamlakatimiz taraqqiyotiga faol ko'maklashayotgani ta'kidlandi.

O'zbekiston — Germaniya ishbilarmonlar kengashi majlisi doirasida biznes forumi ham o'tkazildi. Tadbirda o'zaro tovar ayirboshlash miqdorini oshirish, turli sohada qo'shma investitsiya loyihalarini ro'yobga chiqarish bo'yicha hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. O'z navbatida, nemis kompaniyalari ilg'or tajribasi asosida axborot texnologiyalari, "yashil" energetika, transport, infratuzilmani rivojlantirish kabi muhim yo'nalishlar bo'yicha yangi loyihalarni birgalikda amalga oshirishga kelishib olindi.

— Uchrashuvlar hamkorlikning asosiy mezonini belgilab, yangi "Yo'l xaritasi" ishlab chiqishga xizmat qiladi, — dedi "Deutsche Invest Capital Partners" kompaniyasi boshqaruvi direktori Armin Veyland. — Kompaniyamiz O'zbekiston bilan mustahkam hamkorlik o'rnatgan. Biz yosh hamshiralarga nemis tilini o'rgatish, ularni Germaniyada ish bilan ta'minlash va malakasini oshirishga qaratilgan bir qator loyihalarni amalga oshiryapmiz. Bugungi konferensiyada qariyb yuzga yaqin Germaniya kompaniyalari ishtirok etdi. Bu mamlakatimiz biznes vakillarida yurtingizga qiziqish kuchli ekanidan dalolat beradi. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy muhit hukmron, mamlakatingiz xalqaro hamkorlar uchun doim ochiq. Ayni shu jihatlar muvaffaqiyatingizning asosiy omilidir.

Toshkentda bo'lib o'tgan O'zbekiston — Germaniya ishbilarmonlar kengashining navbatdagi majlisi turli sohada qo'shma investitsiya loyihalarini ro'yobga chiqarish bo'yicha hamkorlikni yanada rivojlantirish kabi muhim masalalar muhokama qilingani bilan samarali bo'ldi.

**Marhabo MADAMINOVA,**
**O'zA muxbiri.**

# JSTGA A'ZOLIK SARI QO'YILAYOTGAN QADAMLAR IJOBIY BAHOLANDI

*Toshkentda "O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar va Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni" mavzuida konferensiya bo'lib o'tdi. Tadbir O'zbekiston hukumati tomonidan Jahon savdo tashkiloti, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi ko'magida tashkil etildi.*
*Jahon savdo tashkiloti (JST) bosh direktori doktor Ngozi Okonjo-Iveala xonimning yurtimizga rasmiy tashrifi doirasida o'tkazilgan anjuman O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonidagi muhim bosqich hisoblanadi.*

Konferensiya

Tadbirda mamlakatimizda so'nggi yetti yilda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar samaralari va bu boradagi rivojlanishni tezlashtirish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan rejalar hamda JSTga a'zo bo'lish jarayoni muhokama qilindi.

Tadbir avvalida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yordamchisi Saida Mirziyoyeva, Jahon savdo tashkiloti bosh direktori doktor Ngozi Okonjo-Iveala va O'zbekiston Bosh vaziri o'rinbosari Jamshid Xo'jayev so'zga chiqdi.

Saida Mirziyoyeva o'z chiqishida ta'kidlab o'tganidek, "Prezident Shavkat Mirziyoyev qator davlat korxonalarining eksklyuziv huquqlarini bekor qiluvchi Farmonni imzoladi. Zero, ushbu ko'p yillik muammo aksariyat davlat korxonalarining bozor iqtisodiyotiga o'tish imkonini, pirovardida esa xususiy sektor uchun teng imkoniyatlarni cheklab kelgan.

Prezident yordamchisi, shuningdek, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish borasidagi qat'iy niyatini yana bir bor tasdiqladi va bu maqsadga erishish uchun qo'yiladigan qadamlarni sanab o'tdi:

— Asosiy maqsadimiz daromadi o'rtachadan yuqori davlatlar qatoriga qo'shilish, — dedi Saida Mirziyoyeva. — Bu aholi farovonligini barqaror iqtisodiy o'sish hisobiga oshirishni nazarda tutadi. 2030-yilga borib mamlakatda YaIMni ikki barobar oshirish, kambag'allik darajasini 7 foizga tushirish niyatidamiz.

JST bosh direktori O'zbekiston tomonidan iqtisodiy muhitni yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan salmoqli sa'y-harakatlarni qayd etib, JSTga a'zo bo'lish jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv yo'lida muhim qadam bo'lishiga ishonch bildirdi.

Respublikamiz iqtisodiy islohotlar va milliy qonunchilikni JST qoidalariga muvofiqlashtirish borasida muayyan natijalarga erishayotgani e'tirof etildi.

So'nggi yillarda O'zbekiston JST kelishuvlariga muvofiq, 30 ta normativ hujjat qabul qildi, 14 davlat bilan ikki tomonlama muzokarani yakunladi. Ushbu islohotlar mamlakatimizni global qo'shilgan qiymat zanjiriga integratsiya qilish, tashqi bozorni kengaytirish, iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish orqali aholi farovonligini yuksaltirishga qaratilgan. Bu jarayonda JSTga a'zo bo'lish muhim ahamiyat kasb etib, xalqaro savdo munosabatlarini yaxshilashga ko'maklashadi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, 2024-yil 24-may kuni Shveysariyaning Jeneva shahrida O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha Ishchi guruhning 8-yig'ilishi o'tkazildi. Tadbirda mamlakatimiz delegatsiyasi ishtirokida JSTning barcha a'zo davlatlari bilan kelishilgan Ishchi guruh hisoboti loyihasi elementlari muhokama qilindi. JST kelishuvlariga milliy qonunchilikni muvofiqlashtirish bo'yicha islohotlar taqdim etildi, ilk bor qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rib chiqish bo'yicha ko'p tomonlama muhokama o'tkazildi.

Konferensiya doirasida panel sessiyalari ham bo'lib o'tdi. Sessiyalarda parlament a'zolari, vazirlik, idoralar rahbarlari, xalqaro tashkilotlar va diplomatik korpus vakillari ishtirok etdi.

Birinchi sessiyada 2017 — 2023-yillar strategiyasiga muvofiq amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va 2030-yilgacha bo'lgan Yangi O'zbekiston strategiyasida ko'zda tutilgan keyingi chora-tadbirlar tahliliy muhokama qilindi. Xalqaro savdo tizimi, jumladan, JSTga integratsiya jarayonining ahamiyati ta'kidlandi.

Sessiyada Prezidentning iqtisodiy rivojlanish masalalari bo'yicha maslahatchisi Ravshan G'ulomov, Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev, Jahon bankining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy direktori Tatyana Proskuryakova va Xalqaro valyuta jamg'armasining O'zbekistondagi vakili Koba Gvenetadze ishtirok etdi.

Ikkinchi sessiyada milliy qonunchilikni JST kelishuvlariga muvofiqlashtirish bo'yicha sa'y-harakatlar muhokama qilindi. Mutaxassislar qonunchilik hujjatlari qabul qilingani, bojxona tartibini soddalashtirish va tezlashtirishda sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz bergani, oziq-ovqat xavfsizligi va texnik to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha xalqaro standartlar qonunchilikka joriy qilinayotgani qayd etildi.

Xalqaro tashkilotlar va diplomatik korpus vakillari yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ijobiy tendensiyasini e'tirof etib, O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga erishish bo'yicha sa'y-harakatlarini to'liq qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

— O'zbekistonning JSTga qo'shilish borasida olib borayotgan tizimli harakatlarini ijobiy baholash mumkin, — dedi Xalqaro valyuta jamg'armasining mamlakatimizdagi vakili Koba Gvenetadze. — Oxirgi yetti yil mobaynida mamlakatda iqtisodiyot, savdo-sotiq sohalarida keskin rivojlanish kuzatildi. Ishonamizki, islohotlar shu zayl davom etsa JSTga qo'shilish tez fursatlarda amalga oshadi. Tashkilotga a'zolik O'zbekistonga katta imkoniyatlar beradi. Bu o'zgarishlar viloyatlar iqtisodiy jihatdan kuchayishiga yordam beradi. Eksportning hajmi va geografiyasi kengayadi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi dunyo miqyosida mamlakat mavqeini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Konferensiya doirasida ekspertlar davlat rahbari tomonidan 2024-yil 3-iyun kuni imzolangan muhim Farmonning ahamiyatiga alohida to'xtaldi. Mazkur hujjat mamlakatda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlarning davomi sifatida JSTga a'zo bo'lish jarayonini tezlashtirishiga yordam berishi ta'kidlandi.

Anjuman O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish, shuningdek, JST xalqaro standartlariga amal qilish bo'yicha qat'iy intilishini ko'rsatadi.

**Go'zal SATTOROVA,**
**O'zA muxbiri.**

**Toshkentda O'zbekiston — Misr biznes forumi bo'lib o'tdi. Unda ikki davlat ishbilarmon doira vakillari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator kelishuvlarga erishildi.**

# VATAN UCHUN FIDOYILIK TIMSOLI

*“Xalq so‘zi” gazetasining 22-may sonida chop qilingan siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning “Shavkat Mirziyoyev: men umrimni shu xalqqa tikkanman!” sarlavhali maqolasi insonlarni chuqur mulohazaga, mushohadaga chorlaydi, qalbida bugungi kundan rozilik va shukronalik tuyg‘ularini oshiradi. Unda mamlakatimizda kechayotgan hayotbaxsh o‘zgarishlar, yangilanishlar salmoqli fikrlar, aniq misollar, fakt va dalillar asosida ochib berilgan.*

## Aks sado

Darhaqiqat, Prezidentimiz rahnamoligida yangi O‘zbekiston inson qadri ustuvor bo‘lgan, demokratik qadriyatlar, shaxs erkinligi va huquqlari e’zozlanadigan, obod va farovon mamlakatga aylanib bormoqda. Bundan, albatta, juda xursand bo‘lamiz, faxr-iftixor tuyamiz.

Davlatimiz rahbarining maqolada urg‘u berilgan quyidagi fikri ana shu quvonchimizni yanada oshirib, ertangi kunga ishonchimizni mustahkamlaydi:

*“Xudo menga sog‘liq berib, umr bersa, bizda kambag‘allik va ishsizlik bo‘lmaydi. Nimaga desangiz, bunga men yetti yil umrimni tikdim. Tizim yaratdim, qonun yaratdim, dunyoni ochib berdim. Xalqim yaxshi yashasin, niyatlari amalga oshsin, bolalari baxtli bo‘lsin, nevaralari sog‘lom tug‘ilsin, maktabi ishlasin, yo‘llari ravon bo‘lsin deb ishga keldim...”*

Chindan ham, yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal qilishning mutlaqo yangi va o‘ziga xos tizimi yaratildi. O‘zbekiston ijtimoiy davlat tamoyilining yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda aks etishi inson qadrini yanada ulug‘lash, hozirgi va kelgusi avlodlarning farovon turmushini ta’minlashga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Ijtimoiy davlatda barqaror rivojlanishning muhim maqsadi — aholining ehtiyojmand qatlamini qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allik va ishsizlikni qisqartirish, yoshlar va ayollar tadbirkorligiga ko‘maklashish, ta’lim, sog‘liqni saqlash hamda ma’naviy-madaniy sohalarning muntazam taraqqiy etishini ta’minlash, samarali ijtimoiy sug‘urta ta’minotini yo‘lga qo‘yish, jamiyatda keskin ijtimoiy farqlanish va tengsizlikka yo‘l qo‘ymaslik, aholiga munosib turmush sharoitlarini yaratishdir.

Mamlakatimizda ta’lim masalasi kunning birinchi darajali mavzularidan biriga aylandi. Dunyoning ilg‘or davlatlari tajribasiga ham e’tibor bersak, ularda yoshlar ta’lim-tarbiyasi asosiy o‘rinda turganiga guvoh bo‘lamiz.

Maqolada yurtimizda keyingi yillarda ta’limning barcha sohasi va pedagoglar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlar juda ta’sirli misollar bilan tahlil qilingan. Shu bilan birga, muallif bir paytlar ta’lim tizimiga adolatsiz yondashuv muallimning obro‘si, sha’ni, qadri haminqadar baholangani, buning oqibatida aksariyat erkak o‘qituvchilar o‘z kasbini tashlab ketishga majbur bo‘lganini ham ta’kidlaydi.

Shukrki, bugun xalqimiz rivojlanishning yangi davriga dadil qadam qo‘ydi. Hayotimizning barcha jabhasida o‘zgarishlar jadal ro‘y bermoqda. Xususan, ta’lim tizimi mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Buning natijasi o‘laroq keyingi yillarda ayni jabhada Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tizimining paydo bo‘lgani va ularning bitiruvchilari dunyoning eng nufuzli universitetlariga kirish uchun grantlarni yutib olayotgani kishini quvontiradi. Ta’limning jahon andozalariga mos bunday tizimi bugun viloyatlarda tatbiq etilayotgani esa, albatta, barchamiz uchun yuksak faxrdir.

Mamlakatimizda oliy ta’limdagi islohotlarning o‘zi alohida, katta hajmdagi mavzu bo‘la oladi. Bugun yurtimizda OTMlar soni 210 tadan oshgani, ular orasida dunyoning nufuzli universitetlari filiallari ham borligi, oliy ta’lim qamrovi esa muntazam oshib borayotgani kelajagimiz poydevori uchun eng zo‘r imkoniyatdir.

Ha, bugun yoshlarimizda oliy ma’lumotli bo‘lish uchun o‘qishga kirish imkoni nihoyatda keng. Bir abituriyent bir paytning o‘zida bir necha oliygohga hujjat topshirishi va talaba bo‘lishi mumkin. Mana sizga qulaylik!

Bularning barchasi donolik bilan uzoqni ko‘zlagan, yuksak tajriba va keng mushohadali, kechani kecha, kunduzni kunduz demay xalq uchun, millat uchun, yoshlarimiz kelajagi uchun jon kuydirib mehnat qilayotgan, yurtimizda inson qadrini eng muhim darajaga olib chiqqan, odamlar hayotini tubdan yangilab, o‘zgartirib yuborgan yangi O‘zbekiston me’mori — Prezidentimizning o‘tkir zehni, fidoyiligi, Vatanimizga mehr-muhabbati natijasida ekanini qalban his qilamiz. Amalga oshirilayotgan ishlarda yanada faol bo‘lishga, zimmamizdagi vazifalarni sidqidildan bajarishga intilamiz.

Zotan, siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning maqolasida ta’kidlanganidek, umrini xalq uchun tikkan Millat Liderining qat’iyati, Vatanga va millatga bo‘lgan so‘nmas muhabbati, ishonamizki, yangi O‘zbekistonning porloq kelajagini yaratish yo‘lida barchamiz uchun ilhom sarchashmasi bo‘lib xizmat qilajak.

**Bahrom ABDULLAYEV,**
**Urganch davlat universiteti rektori, fizika-matematika fanlari doktori, professor.**

# ISTIQBOLLI LOYIHALAR IMKONIYATLARNI KENGAYTIRADI

*Bugungi kunda turizm dunyo mamlakatlarida milliy iqtisodiyotga salmoqli daromad keltiruvchi sohalardan biri sanaladi. Butunjahon sayyohlik tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, mazkur soha daromadi yiliga 2,5-3 trln. AQSH dollarini tashkil etadi.*

## Munosabat

Prezidentimiz raisligida shu yil 3-iyun kuni hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini ko‘paytirish chora-tadbirlari muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilib, soha oldida turgan muammolar yechimi bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Bugun Qashqadaryo viloyatida ham mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda turizm infrastrukturasini rivojlantirishga alohida urg‘u berilmoqda. Bu bejiz emas. Sababi purviqor tog‘lari, zilol suvlariyu, betakror tabiati, noyob tarixiy obidalari ila ajralib turadigan bu hududni har bir sayyoh bir marta bo‘lsa-da, borib ko‘rishni orzu qiladi.

Shahrisabz 2000-yillik tarixga ega shahar sifatida UNESCO ning Butunjahon merosi reprezentativ ro‘yxatiga ham kiritilgan. Qolaversa, Shahrisabz shahri Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining “2024-yildagi turizm poytaxti”, deb e’lon qilingan. Hozirgi kunda investorlar tomonidan Shahrisabz tumanidagi G‘elon va Sarchashma qishloqlari orasida tog‘-chang‘i majmuasini tashkil qilish ishlari olib borilayotgan bo‘lsa, Miraki qishlog‘i bo‘yicha ham master reja ishlab chiqilmoqda.

Viloyatda turizm infratuzilmasini yaxshilashga yo‘naltirilgan 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan qiymati 105 mln. dollarlik 151 ta hududiy investitsiya loyihasidan 93 tasi to‘liq ishga tushirildi. Turizm va yondosh sohalarda esa 14 204 ta ish o‘rni yaratildi. Tarmoqda amalga oshirilayotgan ishlar natijasida 2023-yilda viloyatga 2 mln. 109 ming nafar mahalliy, 222 ming nafar xorijiy sayyohlar tashrif buyurdi. Turizm xizmatlari eksporti esa 45 mln. dollarga yetkazildi.

Shu sa’y-harakatlar tufayli bugun vohaga sayyohlar oqimi kengaymoqda. Masalan, 2024-yilning 1-may holatiga ko‘ra, 511 ming nafar mahalliy, 121 ming nafar xorijiy turistlar jalb qilinib, turizm xizmatlari eksporti 24,1 mln. AQSH dollariga yetkazildi. Yil yakuniga qadar xorijiy sayyohlar oqimini 500 mingga, mahalliy turistlarni 4 millionga, turizm xizmatlari eksportini 100 mln. dollarga yetkazish maqsad qilingan.

“Shahrisabz” turistik markazi hududida boshlang‘ich qiymati 8 mlrd. so‘mlik 6,3 gektar yer maydoni 8 ta lotga bo‘linib, auksion savdolari orqali tadbirkorlik subyektlariga sotilgan. Bu, o‘z navbatida, turizm drayverlari bo‘lmish ziyorat, eko, etno va gastroturizm yo‘nalishlarini rivojlantirishga qaratilgan konsepsiyani samarali amalga oshirish imkonini bermoqda.

***Prezidentimiz Qashqadaryoga tashriflari davomida viloyatning to‘rt faslda ham turistlarni jalb qilish salohiyatiga ega ekanligini alohida ta’kidlaydi. Shu bois viloyatda turizm infratuzilmasini yaxshilash, ekoturizm va boshqa yo‘nalishlarda salohiyatni yuksaltirishga katta e’tibor qaratilayotir.***

***Belgilangan qator chora-tadbirlarga ko‘ra, birinchi galda Shahrisabz shahri va tumanida turizm klasteri tashkil qilinadi. 33 kilometrli Hisorak — G‘elon va Hisorak — Sarchashma yo‘llari kengaytirilib, ta’mirlanadi. Chiroqchi — Sho‘rquduq avtomobil yo‘li yaxshilanib, Samarqanddan Shahrisabzga qatnov vaqti qisqartiriladi.***

Sohada amalga oshirilayotgan shu va yana bir qator istiqbolli loyihalar Qashqadaryoning to‘rt faslda ham sayyohlarni munosib kutib olishga qodir hudud sifatida yanada tanilishi va vohaga tashrif buyuradigan turistlar oqimining kengayishi, shuningdek, tarmoqda band bo‘lgan fuqarolar soni ko‘payishi va ularning turmush farovonligi oshishiga xizmat qiladi.

Turizm ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega keng qamrovli soha. U daromadliligi bo‘yicha dunyoda uchinchi o‘rinda turadi. Eng muhimi, bu soha kam xarajat bilan ko‘p ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi. Turizm sohasida olingan daromadning bir qismini turizm obyektlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish tadbirlariga yo‘naltirish, shubhasiz, hududlarda barqaror ekologik taraqqiyotni ta’minlash, atrof tabiiy muhitni kelajak avlodlar uchun asrashning muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizga sayyohlarni yanada ko‘proq jalb qilish uchun, birinchi galda, xizmat ko‘rsatish sharoitlarini yaratish, qulay transport vositalari bilan ta’minlash va albatta, O‘zbekistonning ekoturistik salohiyatini jahon miqyosida targ‘ib qilish ham muhim ahamiyatga ega. Lekin transport bilan bog‘liq masalalar turizm rivojiga xalal bermoqda. Chunki xorijliklar uchun O‘zbekistonning darvozasi, bu — aeroport.

Shu bois yig‘ilishda ushbu masalaga alohida to‘xtalinib, Transport vazirligiga xalqaro reyslarni ko‘paytirish, barcha qatnovlar haqida ma’lumot va chipta olish imkonini beradigan yagona onlayn platformani ishga tushirish vazifasi qo‘yildi. Bu esa sayyohlar ko‘lamini oshirish bilan birga, pirovardida yangi ish o‘rinlari yaratish, aholining turmush farovonligini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytganda, Qashqadaryoda jonli tabiati, musaffo havosi, bir-biridan go‘zal manzaralari bilan sayyohlarni o‘ziga tortadigan maskanlar ko‘p. Ularda turizmni rivojlantirishdan barchamiz birdek manfaatdormiz.

**Islom XUSHVAQTOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

# ABITURIYENTLARNING HAYAJONLI DAMLARI BOSHLANDI

*Mamlakatimizda 5-iyundan 2024/2025 o‘quv yilida oliy va professional ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun abituriyentlarni onlayn ro‘yxatga olish boshlandi. U ayni paytda “my.uzbmb.uz” saytining “Oliy va professional ta’lim muassasalariga qabul” bo‘limi orqali bajarilmoqda va 25-iyunga qadar davom etadi.*

*Davlat oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga qabul jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda abituriyentlar test sinovi topshirish uchun onlayn ro‘yxatdan o‘tadi va agar test sinovida ishtirok etsa, fanlar majmuasi, ta’lim tili hamda test topshirish hududini belgilashi zarur. Agar talabgor alohida iqtidor talab qilinadigan ta’lim yo‘nalishlarida o‘qish istagini bildirsa, kasbiy yoki ijodiy imtihondan o‘tadi va ta’lim tili, test topshirish hududi, alohida iqtidor talab etiladigan ta’lim yo‘nalishi, davlat oliy ta’lim muassasasini belgilashi darkor.*

## Ta’lim



Ikkinchi bosqichda esa test sinovlari to‘liq yakunlanganidan so‘ng 15 kun davomida “my.uzbmb.uz” sayti orqali oliy ta’lim muassasasi, bakalavriat ta’lim yo‘nalishi, ta’lim shakli va tanlov ustuvorligini tanlashi lozim.

Talabgorlarning test sinovida to‘plagan ballari test sinovi o‘tkazilgan kunning ertasiga, uning talabalikka tavsiya etilgani yoki etilmagani bo‘yicha tanlov natijasi qabul jarayonining ikkinchi bosqichi to‘liq yakunlanganidan so‘ng bir hafta muddatda rasmiy veb-saytda e’lon qilinadi.

Kollej va texnikumlarda o‘qish istagini bildirgan abituriyentlar “Avval test, so‘ng tanlov” tamoyiliga muvofiq oliy ta’lim muassasalariga qabulning yakuniy natijasi e’lon qilinganidan so‘ng 10 kun muddatda kollej yoki texnikum, kasb va mutaxassislik hamda ta’lim shaklini tanlaydi. Yakuniy tanlov natijasi bir hafta muddatda Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

— Joriy yilda oliy va professional ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha imtihonlar yangi tamoyilga muvofiq bir vaqtda o‘tkazilayotgani abituriyentlar uchun ajoyib yangilik bo‘ldi, desak, yanglishmaymiz, — deydi Bilim va malakalarni baholash agentligi direktori maslahatchisi Zohid Shakarov. — Endilikda ular o‘z tanloviga ko‘ra test sinovi natijasida to‘plagan balidan kelib chiqib, dastlab oliy ta’limning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga, keyin esa professional ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun tanlovda ishtirok etish imkoniga ega bo‘lishadi.

Xo‘sh, joriy yil bilim olish ishtiyoqida yonayotgan, hayajonli damlarni kutayotgan abituriyentlarga yana qanday yangiliklar bor? Ular uchun yana qaysi imkoniyatlar taqdim etilmoqda?

Aytish joizki, mamlakatimizda ta’lim muassasalariga test topshirish va tahsil olish jarayonlari bilan bog‘liq islohotlar yildan-yilga kengayib bormoqda. Joriy yilda ham bu ezgu va xayrli an’ana davom etdi. Xususan, shu yilning 25-may sanasida davlatimiz rahbarining “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi.

Mazkur hujjat oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat buyurtmasini shakllantirish hamda davlat granti ajratish mexanizmlarini takomillashtirish, yoshlarning sifatli ta’lim olishlari uchun mavjud shart-sharoitlarni yaxshilash, kadrlar tayyorlashni iqtisodiyotning rivojlanayotgan tarmoq va sohalariga manzilli yo‘naltirishga qaratilgani bilan alohida e’tiborga molik.

Farmonga muvofiq 2024/2025 o‘quv yili qabulidan boshlab davlat buyurtmasi parametrlarini davlat oliy ta’lim muassasalari kesimida taqsimlash amaliyoti bekor qilinib, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kunduzgi ta’lim shaklida tasdiqlash tartibi joriy etiladi. Bundan oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari mustasno.

Davlat buyurtmasi bo‘yicha kvotalar taqsimotida muhandislik, tibbiyot, aniq va tabiiy fanlar bilim sohalariga ustuvorlik berilishi ham ushbu yo‘nalishlarda o‘qishni istagan talabgorlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi, desak, mubolag‘a emas.

Shuningdek, 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab talabalarga davlat granti ijtimoiy-rag‘batlantiruvchi grant va ta’lim granti shaklida ajratiladi. Ya’ni ijtimoiy-rag‘batlantiruvchi grant qonunchilikda belgilangan imtiyoz bo‘yicha davlat granti asosida va maqsadli qabul doirasida o‘qishga qabul qilingan talabalarga, shuningdek, tarmoq va sohalarning, davlat organlari va tashkilotlarning grantlari sohiblari hamda ta’lim granti davlat buyurtmasi parametrlari doirasida oliy ta’lim tashkilotiga qabul qilingan talabalar uchun ajratiladigan bo‘ldi.

Yangi o‘quv yilidan boshlab bakalavriat va magistraturaga qabul qilingan talabalarga ta’lim granti bir o‘quv yili uchun ajratiladi. Pirovardida, birinchi kursda oliy ta’lim tashkilotlariga ajratilgan davlat buyurtmasi kvotasiga muvofiq kirish imtihonlarida yuqori ball to‘plagan talabalar ta’lim granti asosida tahsil olishlari mumkin. Ta’lim granti endilikda ikkinchi va undan keyingi kurslarda yuqori akademik reyting ko‘rsatkichlariga erishgan hamda ijtimoiy faol talabalar orasida oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan tabaqalashtirilgan tartibda qayta taqsimlanadi.

Ijtimoiy-rag‘batlantiruvchi grant sohibi bo‘lgan talabalarga esa davlat granti ularning o‘qish davri uchun to‘liq hajmda taqdim etiladi.

Yangi o‘quv yilidan boshlab ta’lim granti asosida tahsil olgan talabalarning o‘qishni tamomlaganidan so‘ng kamida uch yil ishlab berish majburiyati bekor qilingani ham ajoyib xushxabar.

Joriy o‘quv yilidan boshlab imtihonsiz qo‘shimcha davlat granti asosida talabalikka tavsiya etish uchun asos bo‘luvchi imtiyozga ega abituriyentlar Davlat komissiyasining qaroriga asosan ta’lim shaklidan qat’i nazar, ro‘yxatdan o‘tishda imtiyoz amal qiladigan doirada tanlagan birinchi bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga qo‘shimcha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinishi belgilab qo‘yildi.

Xalqaro sport musobaqalari g‘oliblari jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga sport turlarining soha bo‘yicha mos kelishiga qat’iy rioya etilgan holda imtihonsiz qo‘shimcha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinishi ham yaxshi yangilik bo‘ldi.

— Mamlakatimizda ilmga chanqoq yoshlar uchun yildan-yilga yangi imkoniyatlar eshigi ochilmoqda, bu ertaga, albatta, o‘z natijasini ko‘rsatadi, — deydi abituriyent Bonu Farhodova. — Bola paytimiz akalarimiz o‘qishga topshirish uchun hujjatlarini ko‘tarib sarsonu sargardon bo‘lib yurganini ko‘rardik. Hozir bunday gaplar yo‘q, o‘qishga topshirmoqchi bo‘lsangiz, shunday saytga kirasiz, OTMni tanlaysiz, hujjatlaringizni yuklaysiz, tamom. Ortiqcha ovoragarchilik yo‘q, bemalol testlarga tayyorlanishda davom etishingiz mumkin. Asosiysi, bilimlaringiz mustahkam, o‘zingizga ishonchingiz baland bo‘lsa, talabalik baxtiga musharraf bo‘lasiz.

Ta’kid shuki, oliy ma’lumot olish istagidagi yurtdoshlarimiz uchun keng sharoitlar, yangi imkoniyatlar taqdim etilmoqda. Bu esa yurtimizda oliy ta’limning jozibadorligini yanada oshirib, o‘z kuchiga, bilim va salohiyatiga ishongan yoshlarni yangi marralar sari ruhlantiradi.

**Rahmatjon BOBOJONOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

“Riyadh” gazetasi:

# «Samarqand – madaniyatlar chorrahasi»

*Saudiya Arabistonining ommabop “Riyadh” gazetasida mazkur nashr muxbiri Abdulaziz Ali al-Shahriyning Samarqandning boy madaniy va tarixiy merosiga bag‘ishlangan maqolasi chop etildi.*

## Dunyo nigohi




Muallif mazkur maqolada Samarqand shahriga qilgan safar taassurotlarini qog‘ozga tushirgan. “O‘zbekistonning Samarqand shahri bir necha asrlar davomida qadimgi Buyuk Ipak yo‘lining yirik markazi bo‘lgan. XXI asr boshlarida Samarqand shahri va uning tarixiy arxitektura va arxeologik yodgorliklari “Samarqand — madaniyatlar chorrahasi” nomi bilan UNESCO ning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kirgan”, deyiladi nashrda.

Gazeta muxbiri ushbu shaharga kelganida bu yerdagi tarixiy va arxeologik yodgorliklar uni hayratda qoldirganini ta’kidlagan. “Shuning uchun Bibixonim madrasasi, Shohi Zinda majmuasi, Amir Temur maqbarasi kabi eng mashhur, diqqatga sazovor joylarni ziyorat qilish harakatida yurdim. Registon maydoni, Afrosiyob ko‘hna manzilgohi, shuningdek, ipakchilik korxonasi, qadimiy qog‘oz ishlab chiqarish zavodi va boshqa ko‘plab obyektlarda bo‘ldim”, deya davom etadi u.

Maqolada, ushbu maftunkor shahar Rim va Bag‘dod kabi dunyoning mashhur qadimiy poytaxtlari bilan tengdosh ekani xabar qilingan. Shahar taxminan 2750-yil muqaddam vujudga kelgan va bu unga nafaqat Markaziy Osiyo, balki dunyoning eng qadimiy shaharlaridan biri deb nomlanish huquqini beradi. Samarqand shahri taraqqiyotining eng yuqori cho‘qqisi Amir Temur va temuriylar davriga to‘g‘ri keladi.

“Samarqandga kelganingizda mashhur Registon maydonini ziyorat qilmasdan ilojingiz yo‘q. Bu kabi islom arxitekturasining noyob namunasini men dunyoning hech bir joyida ko‘rmaganman. Bu diqqatga sazovor joy 17 yil davomida eng mohir usta va quruvchilar tomonidan bunyod etilgan. Yaxlit me’moriy ansambl uchta qadimiy obidani qamrab oladi”, deb yozadi jurnalist.

**“Dunyo” AA.**
Ar-Riyoz

**E’lon**

“Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetalarining 2024-yil 5-iyun sonida chop etilgan 2023-yil yakuni bo‘yicha “O‘zsanoatqurilishbank” ATB aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida xabarnomaning 8-bandida “Aksiyadorlarga yillik umumiy yig‘ilishning o‘tkazilishi haqida xabardor qilish uchun reestrni shakllantirish sanasi: 2024-yil 3-iyun” deb keltirilgan sana 2024-yil 28-may, deb o‘qilsin.

**Bank axborot xizmati.**

**Joriy yilning 27 — 30-iyun kunlari Jizzax viloyatining Zomin tumanida II xalqaro maqom san’ati anjumani o‘tkaziladi.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-6788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir Z. Xudoyshukurov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 00.50 Topshirildi — 02.20 1 2 3 4 5 6